

ABDULLA AVLONIY ASARLARIDA TARBIYANING ROLI

Xamrayeva Dildora Ro‘ziyevna

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti

Maktabgacha ta’lim fakulteti tyutori.

munojatyuldosheva2006@gmail.com

Xonimova Lobar Xolmamat qizi

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti

Maktabgacha ta’lim fakulteti talabasi.

lobarxonimova@gmail.com

***Annotatsiya.** Milliy uyg‘onish davri yetuk siymolaridan biri bo‘lmish, jadidchilik harakatining ko‘zga ko‘ringan vakillaridan biri Abdulla Avloniydir. Abdulla Avloniyning asarlariga e’tibor qiladigan bo‘lsak undagi asl mazmun ta’lim tarbiyaga qaratilganligi bilan e’tiborga sazovordir. Adibning “Turkiy guliston yoxud axloq” asari bu boradagi eng asosiylaridandir. Asarda axloq, xulq, yaxshilik va yomonlik, sabr, qanoat, sadoqat, adolat, zulm, itoat, nazofat, riyozat va hokazolar to‘g‘risida ko‘plab hikoyatlar keltirib o‘tilgan. Ushbu maqola Abdulla Avloniyning “Turkiy guliston yoxud axloq” asaridagi tarbiyaviy jihatlar bayon etilgan.*

***Kalit so‘zlar.** Milliy uyg‘onish, jadidchilik, jadid, tarbiya, Turkiy guliston yoxud axloq, axloq, xulq, tarbiya, badan tarbiyasi, fikr tarbiyasi, axloq tarbiyasi.*

***Annotation.** Abdulla Avloni is one of the mature figures of the national renaissance period and one of the prominent representatives of the Jadidist movement. If we pay attention to the works of Abdulla Awlani, it is worth noting that their original content is aimed at education. Adib’s work "Turkish Gulistan or Morality" is one of the most important in this regard. The work contains many stories about morality, behavior, good and bad, patience, contentment, loyalty, justice, tyranny, obedience, elegance, poetry, etc. This article describes the educational aspects of Abdulla Avloni’s work "Turkish Gulistan or Morality".*

***Key words.** National renaissance, Jadidism, Jadid, education, Turkish Gulistan or ethics, ethics, behavior, education, body education, thought education, moral education.*

“Tarbiya biz uchun yo hayot yo mamot, yo najot yo halokat, yo saodat yo falokat masalasidir.”
(Abdulla Avloniy)

XIX – XX asrda adabiyotimizga yangi yo‘nalishlar, yangi nafas olib kelgan jadidchilik harakati rivojlandi. Ushbu harakatning asl mazmun mohiyatiga e‘tibor qaratsak, jadid – arabchadan „ yangi” degan ma‘noni beradi. Darhaqiqat, bu yangilanish qoloqlik uyqusida g‘aflatda qotguvchi xalqni ma‘rifatli qilish ilinjidagi harakatlardan iborat edi. Xalqini ilm-u ma‘rifatli ko‘rishni istagan ana shunday jadidchi adiblardan biri Abdulla Avloniy edi.

Abdulla Avloniy 1878 – yil 12 – iyulda Toshkentda Mergancha mahallasida dunyoga keldi. Bolalikdan ilmga chanqoq adib turmush qiyinchiliklariga qaramasdan ilm olish uchun imkon topa oldi. Ammo, og‘ir turmush sharoiti bar bir o‘z ta‘sirini o‘tkazmasdan qo‘ymadi. O‘zi bu haqda shunday yozadi „, 1891 – yildan boshlab, faqat qish kunlari o‘qub boshqa fasillarda mardikor ishladim”¹. Hayot sinovlari sabab g‘isht quyish, suvoqchilik, pechakchilik, duradgorlik kabi ishlarda ham mehnat qiladi. Mustabit tuzumdagi shunday qiyinchiliklarni boshdan o‘tkazayotgan Avloniy, tobora ilmsizlik, johillik botqog‘iga botayotgan xalqini ma‘rifatli ko‘rishni istaydi. Shu maqsadlarda turli yillarda bir qator gazetalar nashir etadi, o‘z she‘rlari, badiiy asarlarida ta‘lim tarbiyaga katta e‘tibor qaratadi. Yangi usuldagi jadid maktablarini ochadi. Maktab o‘quvchilari uchun darsliklar yozadi. Xususan, „Birinch muallim”, „Ikkinchi muallim”, „Maktab gulistoni”, „Muallimi soniy” kabi ko‘plab kitoblar nashir etadi. Ular orasida „Turkiy guliston yoxud axloq” ta‘limiy va tarbiyaviy jihatdan alohida o‘ringa egadir. Asar 1913 – yilda maktab o‘quvchilari uchun darslik sifatida yaratilgan bo‘lsada, uning salmog‘i faqatgina maktab darsligi doirasi bilan chegaralanmadi. Asar ilmga oshno qalblar, adabiyot ixlosmandlari uchun ham qimmatli o‘rin egalladi.

“Turkiy guliston yoxud axloq” asaridagi bosh g‘oya ta‘lim tarbiyaga qaratilganligining yaqqol misoli sifatida asardagi ilk mavzu axloqqa atalganligidan bilish mumkin. Avloniy axloqqa “insonni yaxshilikka chorlovchi, yomonlikdan qaytaruvchi bir ilm” deya ta‘riflaydi.² O‘z aybini tan ola bilish va uni tuzatishga harakat qilishni ham Avloniy yaxshi axloq deb biladi. Axloq hech qayerda qonuniy belgilab qo‘yilmagan, faqatgina aql va ong tarozilari bilan o‘lchanadigan sifattir. Go‘zal axloqli bo‘lish avvalam bor oilada shakillanadi. Uning rivojlanib borishi jamiyat hayoti bilan uzviy bog‘liqdir. Axloq va axloqsizlik qoidalari asirlar mobaynida shakillanib,

¹ Avloniy. Toshkent tongi. T.1979 yil. 373 bet

² Avloniy Abdulla. Turkiy guliston yoxud axloq. T.1917. 2 bet.

qonuniy yozilmasada insonlar qon – qoniga singib ketgan azaliy qadriyatlardan sanaladi. Abdulla Avloniy axloqni keng ma’noda ta’rif etadi.

*So ‘ylasang so ‘yla yaxshi so ‘zlardan,
Yo ‘qsa jim turmog ‘ing erur yaxshi.
O ‘ylasang yaxshi fikrlar o ‘yla,
Yo ‘qsa gung bo ‘lmog ‘ing erur yaxshi.
Ishlasang ishla yaxshi ishlarni,
Yo ‘qsa bekorlig ‘ing erur yaxshi.*

Abdulla Avloniy xulqqa ta’rif berar ekan shunday deydi: „Jasadning surati hammaga ma’lum bir narsadurki, har vaqt ko’zga ko’rinib turadi. Ammo, nafsning surati ko’zga ko’rinmaydurgan, aql ila o’lchanadigan bir narsadurki buni xulq deb atalur”.¹ Avloniy xulqni yaxshi va yomon turlarga ajratadi. Yomon xulqni esa tarbiya orqali o’zgartirish mumkin. Demak inson kamoloti tarbiyaga bog’liqligicha qoladi. Yovvoyi tabiat qo’ynida, yomon muhitga tushib qolgan daraxtni tarvaqaylab ketgan shoxlarini kesib, o’g’it va suv bilan ta’minlab, eng muhimi yaxshi e’tibor berilsa undan kelajakda unumli hosil olish mumkin. Xuddi shunday yomon muhit ta’siriga tushib qolgan bolaga ham to’g’ri tarbiya berish orqali kelajakda yetuk shaxs bo’lishiga zamin yaratish mumkin. Tarbiya inson tug’ulgan kundan boshlanadi. Avloniy tarbiyani ketma – ketlik bo’yicha uch guruhga ajratadi: badan tarbiyasi, fikr tarbiyasi, axloq tarbiyasi. Darhaqiqat go’dakda ilk bor badan tarbiyasi shakillanadi. Bolaning ilk kunlaridanoq tanasidagi organlar o’z ish faoliyatini boshlab shu bilan birga takomillashib boradi. Bola uch, to’rt oylik vaqtdan boshlab o’z yaqinlarini begonalardan farqlay boshlaydi va shu asnoda fikr tarbiyasi ham rivojlanib boradi. Boladagi ilk axloqiy tarbiya oilada shakillanib boradi va jamiyat hayotiga aralashuv natijasida rivojlanadi, takomillashadi.

*Fikr agar yaxshi tarbiya topsa,
Xanjar, olmosdan bo ‘lur o ‘tkir.
Fikrning oynasi olursa zang,
Ruhi ravshan zamir o ‘lur benur.*

Abdulla Avloniy „Turkiy guliston yoxud axloq” asarida ta’limiy – axloqiy sifatlar bayon etilgan 66 ta hikmat, ibrat va pandnomalardan tashkil topgan bo’lib, insoniylik hislarini o’zida mujassamlashtirgan o’z davrining mukammal qo’llanmalaridan biridir. Xulosa qilib aytganda, Abdulla Avloniyning „Turkiy guliston yoxud axloq” asarida ilgari surilgan yuksak g’oyaviy – axloqiy qarashlari insoniyatning ma’naviy kamoloti uchun muhim ma’rifiy ahamiyat kasb etadi. Asar bugungi kunda ham ta’limiy – axloqiy jihatdan o’z o’rniga ega hisoblanadi.

¹ Avloniy Abdulla. Turkiy guliston yoxud axloq. T.1917. 2 bet.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Avloniy. Toshkent tongi. T.1979 yil
2. Avloniy Abdulla. Turkiy guliston yoxud axloq. T.1917 -yil
3. Abdulla Avloniy. „she’rlar, pedagogikasarlar, drama, maqolalar va sayohatnomalar’’. Zarbajad media. T: 2022 yil